


Ilmiy kengash

Oliy ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti faoliyatiga tegishli asosiy masalalarни ko'rib chiqish maqsadida rektor raisligida Ilmiy Kengash tashkil etilgan.

Ilmiy Kengashining asosiy vazifasi: Institut jamoasi say -xarakatlari, intellektual salohiyati va boshqa barcha imkoniyatlarni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlash, oliy ta'limning davlat ta'lim standarti talablari darajasida mukammal bilim, malaka, ko'nikmalarga ega bo'lgan professional mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirishdan iborat.



Institut Ilmiy Kengashining tarkibi rektor (rais), prorektorlar, fakultet dekanlari, mutaxassis chiqaruvchi kafedralar mudirlari, shuningdek, jamoat tashkilotlari rahbarlaridan tashkil etiladi.

Ilmiy Kengashning boshqa a'zolari, fakultetlarining umumiy majlislarida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar. Professor-o'qituvchilar tarkibidan Ilmiy Kengashga saylanuvchi a'zolarning soni rektorning buyrug'i bilan belgilanadi. Ilmiy Kengash tarkibiga oliy o'quv yurtining muayyan yo'nalish muammolari bo'yicha ishlayotgan yirik olim va mutaxassislari kiritilishi mumkin.

Ilmiy Kengash vakolat muddati – 5 yil.



Ilmiy Kengash tarkibi oliy o'quv yurti rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Har o'quv yilining boshida turli sabablarga ko'ra Ilmiy Kengash tarkibidan chiqqanlar o'rniغا, yangi a'zolar saylanadi yoki nizom bo'yicha kiritiladi.

Ilmiy kengash yig'ilishlari har oyning so'nggi juma kuni o'tkaziladi. Uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqishdan oldin, bundan oldingi Ilmiy kengash yig'ilishida ko'rib chiqilgan masalalar, qabul qilingan qarorlar ijrosi nazoratdan o'tkaziladi va baholanadi.

O'quv va ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va tashkiliy ishlarga doir barcha masalalar bo'yicha Ilmiy Kengash qarorlari ochiq ovoz berish tartibida ko'pchilikning ovozi bilan qabul qilinadi. Ilmiy Kengash majlisi uning tarkibidagi a'zolarning 2/3 qismi ishtirok etgandagina haqiqiy hisoblanadi. Ilmiy Kengash raisi muntazam ravishda Ilmiy Kengash qarorlarining bajarilishi bo'yicha tekshiruvlar tashkil etadi va Ilmiy Kengash a'zolariga ularning natijalari haqida axborot beradi.

